

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.Abdullayeva	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi	324
F.Temirov	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
I.Naimov	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
R.Rahimov	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar	337
D.A.Choriyeva	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
O.V.Mahmudov	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya	353
A.A.Hakimov, B.A.Usmanov	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi	360
N.X.Choriev	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi	365

ADABIYOTSHUNOSLIK

I.Yakubov	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda	368
P.Bakirov	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani	373
I.Mannopov	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi	379
Q.Yo'lchiyev	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar	383
J.Eshonqulov	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati	388
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
M.Qurbonalieva	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili	399
I.Eshonqulov	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash	405
H.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi	413
X.A.Xaitov	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi	417
Samadi Nooria	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari	421
A.G.Sabirdinov	
Shuhrat she'rlariga bir nazar	427
S.Muminov, Z.Kamoliddinova	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi	439
Sh.A.Ganiyeva	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari	443
D.Yuldasheva, S.Nishonova	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
M.Saminjonov	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
O.Latipov	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini	454

MAQOLLARNING METODIK JIHATDAN O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
METHODOLOGICALLY SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИ-СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЦ

Samadi Nooria¹

¹Samadi Nooria

– Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchilar ko'pincha o'z o'quvchilarining diqqatini o'tiladigan dars mavzusiga jalb qilish uchun ko'p harakat qilishlari zarur, shunda o'quvchilarga o'rganish jarayonida zavqlanish hissini uyg'otadi va ular bir vaqtning o'zida ko'proq o'rganishlari uchun imkoniyat yaratib beradi. Ingliz tili maqollaridan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda, shuningdek, yangi dars va yangi mavzuni boshlash uchun eng samarali usul hisoblanadi.

Ushbu maqola maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari va ulardan darsning turli bosqichlarida foydalanilishiga bag'ishlangan. Maqolada maqollar yordamida ingliz tilini o'rgatish strategiyalari haqida misollar orqali ma'lumot berilgan.

Аннотация

При обучении английскому языку преподаватели часто должны стараться привлечь внимание своих студентов к теме, в результате чего студенты могут чувствовать себя расслабленными, и в то же время у них может быть возможность узнать гораздо больше. Использование английских пословиц рассматривается как наиболее продуктивный способ повысить внимание учащихся и начать новый урок. Данная статья посвящена специфическим методологическим характеристикам пословиц и их использованию на разных этапах урока. Кроме того, на конкретных примерах приводятся данные обучения стратегиям английского языка с помощью пословиц.

Abstract

When teaching English language, teachers often should try to draw their students' attention to the topic, consequently students can feel relaxation and they may have opportunity to learn much more at the same time.

Using English proverbs is considered as the most productive way in order to increase students' attention and start a new lesson.

This article is devoted to specific methodological characteristics of proverbs and the usage of them in different lesson stages. Moreover, data of teaching English strategies with the help of proverbs is given through definite examples.

Kalit so'zlar: Maqol, ingliz tili, o'qitish, o'rganish, grammatika, til ko'nikmalari, dars o'tish jarayoni, o'quvchi, o'qituvchi.

Ключевые слова: Пословица, английский язык, преподавание, обучение, грамматика, языковые навыки, процесс обучения, ученик, учитель.

Key words: proverb, English language, teaching, learning, grammar, language skills, teaching process, student, teacher.

KIRISH

Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish qator til komponentlarini o'z ichiga oladi, ya'ni til birliklarini egallash va til ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Bunda maqollar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'qituvchi o'zga til birliklarini tushuntirish va tahlil qilishda maqollardan autentik o'quv materiali sifatida ishlatsa, produktiv va reseptiv nutqni rivojlantirishda yorqin va ta'sirli nutq modeli sifatida foydalanadi. Bu esa avvalo til o'rganuvchiga motivatsiya beradi, shu bilan bir qatorda o'qituvchi uchun samarali o'quv materiali hisoblanadi.

Ota-bobolarimizning maqollar orqali hayotda har qanday masala bo'yicha chiqargan hukmni o'quvchilar ongiga singdirish uchun o'qituvchilarga kumaklashuvchi vositalardan biri deb sanash mumkin. Maqollarning ma'nosi, tuzilishi va shakli bilan o'quvchilarni tanishtirib borish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.

Alloh taolo Qur'oni karimning (Zumar surasi, 27-chi oyati) da tafakkurni harakatga keltirish va tafakkur qudratini tashbeh va o'xshash tili bilan urug'lantirish, insonning ilohiy tabiatini ulg'ayish va kamolotga chorchash maqsadida hikmatlarni yaratishga e'tibor beradi.

“Darhaqiqat, bu Qur’onda insonlarga har bir masalni keltirdik, shoyadki ogoh bo’lib, ibrat olsalar”. (Zumar surasi, 27 oyat)

Ingliz xalq maqollar ingliz tilining katta xazinasini va til o’qituvchilari uchun qimmatli manbadir. Biz zamonaviy ingliz tili o’qituvchilari ulardan to’g’ri foydalana olsak, nafaqat o’quvchilarning tilga bo’lgan qiziqishini uyg’otish, ularning tilga bo’lgan yutuqlarini oshirish, balki ularning hayot falsafasi, madaniyati, va ularning ongiga oid bilimlardan xabardor bo’lishga undash ham katta foyda keltiradi, bilim va dunyoqarashlarini kengaytiradi. [1,2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani yozishda uning mavzusiga oid tadqiqotchilar va olimlarning qilgan ilmiy izlanishlaridan tahlili manbalar sifatida foydalanildi. Jumladan, “methodological importance of proverbs to the language learners. (for all grades 7-11) nomli internet manbalaridan, Adnan Zaidning “Using proverbs as a lead-in Activity in teaching English as a foreign language ” nomli ilmiy maqolasi, H. Go’zpinarning “proverb- its semantic and didactic parametres”, E.N.Solova. “Method of teaching foreign language” va hokazolarning ilmiy maqolalari va kitoblari o’rganilib, tahlil qilindi

Ingliz tilini o’qitishda maqollar eng samarali vosita hisoblanadi. Maqollar orqali dars o’qitish o’quvchilarni darsga nisbatan qiziqishini oshirish uchun yaxshi sharoit yaratib beradi. Shu bois ingliz tili o’qitish metodikasida grammatika, talaffuz, lug’at o’rgatishda, shuningdek, til ko’nikmalarini rivojlantirishda maqollardan foydalangan holda yangi metodologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir.

Paremiolog Wolfgang Mieder (2004) fikricha, maqollar tarbiyaviy hikmat mazmuniga ega bo’lgani uchun o’qitishda didaktik vosita sifatida qo’llanilgan va qo’llanilishi kerak. Medierning ta’kidlashicha, “ ular asosan ona tilde so’zlashuvchilarning umumiy bilimiga tegishli bo’lganligi sababli, ular haqiqatan ham inson tabiati va umuman dunyo haqidagi donolik va bilimlarini yetkazish uchun juda samarali qurilmadir [2,146b].

Mieder yana bir kitobida “ chet tilini o’rganish haqida gap ketganda, maqollar maqollar madaniy va metaforik o’rganishning bir qismi sifatida o’qitishda rol o’ynaydi” deb ta’kidlaydi. Mieder shuningdiki, “ona tili va chet tillarini o’rgatish bo’yicha darsliklarda odatda maqollar va ularga qo’shiladigan mashqlarning kamida bir nechta ro’yxati mavjud” deb ta’kidlaydi (147 bet).

MUHOKAMA VA NATIJALA

Maqollar o’quvchilarning ingliz tiliga bo’lgan ishtiyoqini kuchaytiradigan, lingvistik intuitsiyasini rivojlantiradigan, lingvistik tushunchalarni, fikrlash odatini shakllantiradigan til materiali hisoblanadi. Ular dars mazmunini yaxshilashga, axloqiy masalalarni muhokama qilish, o’quvchilarni o’z fikrini tasvirlashga o’rgatish va uni qisqa shaklda umumlashtirishga yordam beradi.

H.Go’zpinarning fikriga ko’ra, maqollarga ingliz tili darsliklarida o’quvchilar uchun taqdim etilgan ma’lumotlarga yetarlicha o’rin berilmagani yoki ko’proq vaqt to’ldiruvchisi sifatida foydalanilgani aniqlangan. Sinf darsliklarimizni tekshirganimizda, maqollar til o’qitishning kichik bir qismi ekanligini, til o’qitish darsliklarida qo’llaniladigan materiallarda maqollarga e’tibor berilmasligi va ularni o’rganish uchun mashqlar berilmaganligiga guvoh bo’lamiz [3;2b].

H.Go’zpinar ta’kidlaganidiki, Afg’on maktablarida (4-12) sinf darsliklarini ko’zdan kechirganimizda ingliz tili o’qitishga ixtisoslashtirilgan darsliklarda qo’llaniladigan materiallarda maqollarga umuman e’tibor berilmaganligi va ularni o’rgatish uchun hech qanday mashqlar mavjud emasligiga ishonch hosil qildik. Ingliz xalq maqollarini o’rgatish va o’rganish bo’yicha (4-12) sinflar turli bosqichlarda haligacha hech qanday ilmiy tadqiqot olib borilmagan.

K.A.Toshtemirovning fikriga ko’ra, maktablarda chet tilini o’rganishda, ayniqsa, boshlang’ich bosqichda maqol va matallar katta ahamiyatga ega. Maqol va matallardan foydalanish o’quvchiga dialogda qatnashish, grammatika, sintaksi, frazeologiya haqida birlamchi ma’lumotlar olish imkonini beradi. Maqollarni bilish o’quvchilarga eshitiladigan nutq xabarlarini to’g’ri talqin qilish va ularga munosib javob berish, suhbatdoshiga tushunarli bo’lishi uchun o’z fikrlari va his-tug’ularini ifodalash imkonini beradi, bu esa oqibatda muloqotning muvaffaqiyati va maqsadga erishishni belgilaydi. Maqollar chet tili o’rgatish jarayonida ko’p yillar oldin qo’llanila boshlangan (o’rta asrlarda Evrupoda lotin tilini ularning yordami bilan o’rgatishgan), va hozirda ularning maktab ingliz tili darslarida qo’llanilishi o’quvchilarga nafaqat til jihatlarini, balki nutq faoliyati gapirishning eng muhim turini ham o’zlashtirishga yordam eradi. [4; 1-2betlar]

ADABIYOTSHUNOSLIK

Maqollar o'qituvching qanday maqsadlarni ko'zlashi va qanday ko'nikmalarni rivojlantirmoqchi ekanligiga qarab, darsning turli bosqichlarida va o'qitishning barcha bosqichlarida (Primary (boshlang'ich), lower secondary (quyi o'rta), higher secondary school (yuqori o'rta) maktablar o'quvchilari uchun turli darajadagi til tayyorgarliklarida qo'llanishi mumkin. Maqol va matallar xalq tomonidan yaratilgan va hikmatli fikrlarni qisqa shaklda ifodalovchi adabiy asoslardan o'zlashtirilgan o'rinli iboralardir. Maqol va matallar odatda ikkita olmosh qismdan iborat. Ular to'g'ridan – to'g'ri va majoziy ma'noga ega. Chet til darslarida, maqollar nafaqat ularni eslab qolish va to'g'ri talqin qilish yoki nutqda qo'llash uchun, balki kommunikativ ko'nikma va qobiliyatlarning butun majmuasi leksi, Grammatik, nutq va yozish, o'qish va tinglashni rivojlantirish va nazorat qilish vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin. [5;272-275 betlar]

Ingliz tili darslarida maqol va matallarni o'rgatish bir qator didaktik vazifalarni hal qilishga imkon beradi, masalan:

- **O'qitish:** Talaffuz va talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirish, Grammatik ko'nikmalarni faollashtirish, tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarni so'z boyligini boyitish.

- **Rivojlantirish:** Dunyoqarashni kengaytirish, o'z fikrini chet tilida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini faollashtirish.

- **Tarbiyaviy:** Axloqiy tamoyillarni shakllantirish, boshqa xalqlar madaniyati va an'analalariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini tarbiyalash.

- **Rag'batlantirish:** Asl tilni o'qish orqali chet tilini o'rganishga qiziqishni rivojlantirish, barqaror motivatsiyani shakllantirish va oshirish, o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish. Birinchi chet tili darslaridanoq talaffuzga asosiy e'tibor berilganligi sababli, talaffuz malakalarini rivojlantirishda maqollardan foydalanish zarurligini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, maqollar ona tilida uchramaydigan eng qiyin ingliz tovushlarini ishlab chiqishga yordam beradi:

- **Interdental tovushlar [th]:** Wealth is nothing without health.

- **Burun tovushlari [ing]:** Saying and doing are two different thing.

Bundan tashqari maqollar individualgrammatik shakl va tuzilmalarni faollashtirish va avtomatlashtirishga yordam beradi. Kommunikativ usul grammatikani funktsional interaktiv asosga o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, Grammatik hodisalar "shakl" va "tuzilma" sifatida emas, balki muayyan fikr, munosabat, kommunikativ niyatni ifodalash vositasi sifatida o'rganiladi. To'g'ridan-to'g'ri usullarning tarafdorlari grammatikani o'rganishga yashirin yondashish tarafdori bo'lib, tegishli vaziyatlarda bir xil iboraning takroriy takrorlanishi oxir-oqibat nutqda Grammatik xatolarga yo'l qo'ymaslik qobiliyatini keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi. Shunday ekan, bir tomondan fikrni ifodalash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, nutqda o'rganilayotgan shakl yoki konstruksiyalarni amalga oshirish, maqol va matallar ana shu grammatik shakl va konstruksiyalarning avtomatlashtirishi va faollashiga xizmat qiladi. Shunday qilib, maqollar yordami bilan iltimos, maslahat, taklif, istak, ruxsat, taqiq va ogohlantirish bildirish mumkin. [6]

Maqollarni darsdan oldin bajariladigan faoliyatlarda qo'llanilishi o'quvchilarni taqdim etilayotgan darsga qiziqishi, o'qituvching muvaffaqiyatli va qoniqarli tarzda dars o'tishi uchun zamin yaratadi.

Adnan Zaidga ko'ra, (Lead-in Activity) yetakchi faoliyat darsni qaysidir darajada muvaffaqiyatli ekanligini belgilaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z faoliyatining qiziqarli, dramatik va yorqin bo'lishi uchun qo'ldan kelganicha harakat qilishi kerak. Ingliz xalq maqollarini muqobil sifatida ishlatilishi mumkin.

Webster maqolni aniq haqiqatni yoki shunga o'xshash tajribalarni ifodalovchi qisqa, an'anaviy so'z deb ta'riflaydi. Maqollar asrlar davomida axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish uchun o'quv quroli sifatida ishlatilgan. Ular aql, donolik, tajriba va e'tibor bilan shug'ullanishi mumkin. Ular haqiqatan ham inson tabiatini va butun dunyo haqidagi donolik va bilimlarni yetkazish uchun samarali vosita deb hisoblanadi (Mieder, 2004:146).

Maqollarda umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ayrim so'zlarda kundalik hayotga taalluqli haqiqat mavjud va ular osongina esda qolishlari mumkin. Maqollarning yaxshi qadriyatlarini hisobga olgan holda, o'qituvchi til ko'nikmalarini o'rgatishda oldin ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish uchun maqollardan foydalanishi mumkin. Maqollardan darsdan oldingi faoliyatda qo'llash, lug'at, grammatika, jumlar, axloqiy qadriyatlarining o'rganishni mustahkamlash uchun yaxshi va samarali usuldir [7;2b].

Grammer (grammatika):

O'qituvchi materialni batafsil o'rgatishdan oldin grammatika darsini boshlash uchun ma'lum maqollardan foydalanishi mumkin. Misol uchun gerundni o'rgatmoqchi bo'lgan o'qituvchi quyidagi maqollarni yetakchi faoliyat sifatida ishlatishi mumkin.

Seeing is believing.

Missing the wood for the tree.

Buyruq gaplar (imperatives) : Bular o'rgatishda o'qituvchi quyidagi maqollardan boshlovchi vazifa sifatida foydalanishi mumkin. Buyruq gaplar (positive) ijobiy va (negative) salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy(positive) buyruq gaplar:

Look before you leap.

Make hay while the sun shines.

Salbiy (negative) buyruq gaplar:

Don't bite the hand that feed you.

Don't judge a book by its cover.

Artikllar (a, an va the) ni o'rgatishda o'qituvchi maqollarda qo'llanigan artikllardan foydalanishni ko'rsatishi va namunalar keltirishi uchun o'quvchilardan maqllarni yodlab olishlarini so'rashi mumkin.

An apple **a** day keeps **the** doctor away.

A friend in need is **a** friend indeed.

An empty vessel makes **the** most noise. [Adnan Zaid,2016]

Grammatikani o'rganishda maqol va matallardan foydalanish mumkin. Grammatikani funksional va interaktiv usulda o'rganishga yondashishni o'z ichiga oladi. Demak, kommunikativ Grammatik hodisalar "shakl" va "tuzilma" sifatida emas, balki ma'lum g'oyalar, fikrlash usuli, kommunikativ intilishlarni ifodalash vositasi sifatida o'rganiladi.

Ingliz tilidagi (**irregular verbs**) tartibsiz fe'llarni o'rganishda maqol va matallardan foydalanish mumkin. Quyidagi maqollar bunga misol bo'lishi mumkin.

What is **done** can't be **undone**.

One link **broken**, the whole chain is **broken**.

Amalyot shuni ko'satadiki, agar material maqol va matallardan foydalanish imkonini bersa, (**comparative adjective**) qiyosiy sifatning darajalari jarayonini ko'rsatish qiyin emas.

Better late than never.

The best fish swim in the bottom.

- The least said, the soonest mended.

Modal fe'llar (**Modal verb**) ni o'rganishda maqol va matallardan foydalanish mumkin, masalan:

Never put off till tomorrow what you can today.

You can't always get what do you want.

O'quvchilardan (**numbers**) raqamlarni eslash talab qilinganda, bu o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'diradi, shu o'rinda maqollardan foydalanish raqamlarning eslab qolishini osonlashtiradi.

A bird in the hand is worth two in the bush.

Rain before seven, fine before eleven.

Custom is a second nature.

Two needs better are than one. [8]

Til o'rganishni u tildagi madaniyatidan ajratib bo'lmaydi. Darhaqiqat, til inson madaniyatining bir qismidir. Binobarin, o'qituvchi ingliz tilidan dars berayotganda bir vaqtning o'zida, ingliz madaniyatidan ham dars berishi mumkin. Ingliz xalq madaniyatini tanishtirish uchun o'qituvchi maqollardan yetakchi mashg'ulot sifatida foydalanishi mumkin. Ingliz tili madaniyatini tanishtirishda ishlatish mumkin bo'lgan maqollardan ba'zi misollar:

Make hay while the sun shine.

Time is money.

An Englishman home is castle.

Half loaf is better none.

ADABIYOTSHUNOSLIK

If in February there no rain, it's neither good for hay nor grain. [Adnan,Zaid, 2016]

Talaffuz (Pronunciation): Talaffuzni o'rganish zerikarli bo'lishi mumkin, ammo maqollarni bu jarayonni qiziqarli qilishi aniq. Talaffuz o'rgatishda o'qituvchi o'quvchilar uchun qiyinbo'lgan ba'zi onli yoki undosh tovushlardan iborat bo'lgan maqollardan foydalanishi mumkin.

Unli (vowel): A good wife and health is a man's best wealth.

Haste makes waste.

Undosh (consonant): Practice makes perfect.

Something is better than nothing.

Rhyme (qofiya): Tilning go'zalligi o'quvchilarni o'qishga qiziqtirishda qo'llash uchun qiziqarli narsa bo'lishi mumkin. Qisqa maqollarni chiroyli qofiyalar bilan yodlash o'quvchilarning ko'proq nutq a'zolarini o'rganilayotgan tilni mashq qilishga o'rgatadi.

No pain, no gain.

Too many cooks spoil the broth.[Adnan Zaid, 2016]

Nutq va yozish (speaking and writing):

Tematik nutqiy yozish muhokama qilinadigan mavzuga oid ba'zi maqollar bilan tanishtirish orqali boshlash mumkin. Tegishli maqollarni takrorlash va yodlash nutq a'zolarini mashq qilish uchun foydali boladi. Keying qadam maqollarni og'zaki muhokama qilish yoki tanlangan maqollar asosida insho yozishdir. Mavzu o'quvchilarning qiziqishiga qarab o'zgarishi mumkin, masalan:

Love (sevgi)

Love is blind.

Loveless life is a living death.

Friendship (do'stlik) :

A friend's eye is a good mirror.

Friendship is like money, easier made than kept.

Money (pul):

Time is money.

Money does not grows on trees. [Adnan Zaid, 2016]

Moral values (axloqiy qadriyatlar):

Maqollar boy ma'noga ega bo'lgani uchun ular o'quvchilar o'rtasida fe'l-atvorini shakllantirish va bir vaqtning o'zida ingliz tilini o'rgatish maqsadida axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda ham foydalanish mumkin. Maqollarda donishmandlik, tartib-intizom, insof, do'stlik, tayyorlik, taqdir, baxt, sa'y-harakatlar kabi qadriyatlar mavjud. Masalan, o'qishni o'rgatishda o'quvchi o'qish matnida mavjud bo'lgan ba'zi qadriyatlarni kiritishi mumkin. Axloqiy qadriyatlarga ega maqollardan misollar keltiramiz.

Discipline: Time is money.

Health: An apple a day keeps a doctor away.

Preparedness: Make hay before the sun shines.

Friendship: A friend's eye is a good mirror.

Cautiousness: Don't judge a book by its cover. [Adnan, Zaid, 2016]

Adnan Zaid ning yuqorida bergan ma'lumotlariga asoslangan holda, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda o'quvchilarni o'qish (reading) qobiliyatini takomillashtirish, yaxshilash uchun darsdan oldingi faoliyatda, shuningdek, o'qish mavzusiga doir maqollardan foydalanish mumkin, masalan: Afg'oniston o'rta maktab o'quvchilarni ijtimoiy munosabatlarini yaxshilash, bir-birilariga mehr-oqibatli bo'lish va har qanday vaziyatlarda bir-birlariga yordam qo'llarini cho'zish uchun, ularning turmush tarziga, madaniyatiga mos mavzularni ingliz tili o'qitish uchun tayyorlangan darsliklarga, masalan, "do'stlik" kabi matnlarni kiritishni taklif etamiz. Shuningdek, kiritilgan mavzularni yaxshilab o'quvchilarni ongiga singdirish

uchun ingliz xalq maqollardan, darsdan oldingi faoliyatlarda, shuningdek, keltirilgan matn oralig'ida mos keladigan joylarda qo'llash ayni mudao bo'ladi, masalan:

1. Some friendship do not last, but some friends are more loyal than brothers.

2. Whoever walks with the wise becomes wise, but the companion of fools will suffer harm.

3. A friend means well, even when he hurts you. But when an enemy puts his hand round your shoulder-watch out!

4. An honest answer is the sign of true friendship.

XULOSA

Turli xil ilmiy maqolalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra ingliz tilini o'qitishda maqollardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ingliz xalq maqollaridan ko'proq grammatika sohasida foylanish bilan ingliz tilini o'rgatishda katta yutuqlarga erishish mumkin, agar maqollarga chuqur nazar solinsa, ularning tuzilishida ya'ni ularning strukturasi turli xil (**tenses**) zamonlar, turli darajadagi (**adjectives**) sifatlar, turli shaklga ega (**verbs**) fe'llar, (**imperatives**) buyruq gaplar va (**gerund**) lar va hokazolardan tarkib topganligi sabab, ingliz xalq maqollari, ingliz tili darsliklarining o'qish (**reading**), yozish (**writing**), gapirish (**speaking**), shuningdek, darsdan oldingi faoliyatlarda "Cinquain methods" va "Inquiry method" ya'ni savol-javob usullari orqali ko'proq qo'llanilsa o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanib, til o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kukiboyeva Mahliyo. Independent researcher. Peculiarities and benefits of using proverbs in mastering lessons' communicative grammatical competence – Namangan.: Namangan state university Uzbekistan, 2019. - P2. (Kukiboyeva Mahliyo. Mustaqil izlanuvchi. Kommunikativ Grammatik kompetentsiyani o'zlashtirish darslarida maqollardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlar va afzalliklar – Namangan.: Namangan davlat universiteti Uzbekistan, 2019. – 2 bet.)

2. Mieder, W. (2004). Proverbs- A Handbook. Westport, CT; Greenwood press. P 146. (Mieder, W. (2004). Maqollar- Qo'llanma. Westport, CT; Greenwood nashriyoti. 146 bet)

3. Go'zpinar, H. Proverb- it's Semantic and didactic Parameters. MA. Thesis - Tbilisi.: Tbilisi State university, 2011.- P2. (Go'zpinar, H. Maqol- Bu semantic va didaktik parametrlar. MA. Tezis – Tbilisi.: Tbilis davlat universiteti, 2011. – 2 bet)

4. Toshtemirova K. A. Using proverbs in teaching English to develop logical thinking – Samarqand.: " Science and education" Scientific journal of Samarqand state university. Volume 2 issues 5, 2020. - pp 1-2. (Toshtemirova K. A. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun ingliz tilini o'rganishda maqollardan foydalanish – Samarqand.: " Fan va ta'lim" Samarqand davlat universitetining ilmiy jurnali. 2 jild 5 son, 2020. - 1-2 betlar)

5. Solovova E.N. Method of teaching foreign language: advanced course. Moscow: AST: Astrel, 2010. - pp, 272-275. (Solovova E.N. Chet tilini o'qitish metodikasi: advanced course. Moscow: AST: Astrel, 2010. - 272-275, betlar)

6. Baratboeva G. R. A blend of approaches as a new perspective to effective grammar teaching // "Mirovaya nauka".) № 9 (30), 2019. [Electronic Resource]. URL: https://science-j-com/domains_data/files/30/Rafaelova.pdf/ (date of access: 10.02.2020). (Baratboeva G. R. Amaliy grammatika o'qitishning yangi pozitsiya sifatida yondashuvlar aralashmasi // "Mirovaya nauka".) № 9 (30), 2019.

[Elektron Resurs]. URL: https://science-j-com/domains_data/files/30/Rafaelova.pdf/ (chiqarish sanasi: 10.02.2020.)

7. Adnan Zaid. Using proverbs as a Lead- in Activity in teaching English as a foreign language. International journal on studies in English language and literature volume4, issues (10), October 2016, p2. (Adnan Zaid. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda maqollardan etakchi faoliyat sifatida foydalanish. Ingliz tili va adabiyoti fanlari bo'yicha xalqaro jurnal 4-jild, 10 son, 2016 yil oktyabr, 2-bet International journal on studies in English language and literature volume4, issues (10), October 2016, p2.)

8. Methodological importance of proverbs to the language learners. (for all grades 7-11) <https://infourok.ru/methodological-importance-of-proverbs-to-the-language-learners-for-all-grades-1887976html> (Maqollarning til o'rganuvchilar uchun uslubiy ahamiyati. (barcha sinflar uchun 7-11) <https://infourok.ru/methodological-importance-of-proverbs-to-the-language-learners-for-all-grades-1887976.html>)